

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025**Accepted:** 1 October 2025**Published:** 10 October 2025*Article / Original Paper***THE YOUNG TURKS MOVEMENT AND THE FORMATION OF REPUBLICAN IDEAS DURING THE SECOND CONSTITUTIONAL ERA****Orunbayev Asli**

Independent researcher at Bukhara State University

Abstract. The ideas of liberty, equality, and constitutionalism inherited from the French Revolution influenced not only Western societies but also non-Western ones, accelerating nationalist movements. In the Ottoman Empire, the dissemination and debate of these ideas became especially prominent during the Second Constitutional Era, a time marked by the growing threat of imperial collapse. This period served as a stage for seeking solutions to preserve the Empire. The main force behind the search for an answer to the question “How can this state be saved?” was the Young Turks, who opposed the policies of Sultan Abdulhamid II. Demanding a parliamentary system, equality, liberty, and freedom, the members of this movement developed a strong opposition to the Sultan and eventually achieved the restoration of the parliamentary system. This article examines the emergence and objectives of the Young Turk movement during the final years of the Ottoman Empire and analyzes the political and social developments that followed the declaration of the Second Constitutional Era, one of the movement’s most significant political achievements.

Keywords: Young Turks, Second Constitutional Era, Turkism, Islamism, Ottomanism.**IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G’OYALARINING SHAKLLANISHI****Orunbayev Asli**

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: azamataslimedine01@gmail.com

Annotatsiya. Fransuz inqilobidan meros bo’lib qolgan erkinlik, tenglik va konstitutsiyachilik g’oyalari g’arbga xos bo’lmagan jamiyatlarga ham ta’sir ko’rsatgan va bu jamiyatlarda millatchilik harakatlarining jadallashishiga sabab bo’lgan. Usmonli imperiyasida esa ushbu g’oyalar tarqalishi va muhokamasi, ayniqsa Ikkinchi Mashrutiya davrida, ya’ni imperiyaning parokandalik xavfi kuchaygan bir davrda ko’zga tashlanadi. Bu davr Usmonlini saqlab qolish uchun yechimlar izlanuvchi bosqich bo’lib xizmat qilgan. “Bu davlat qanday qutqariladi?” degan savolga javob izlovchi faol kuchlarning asosiy qismini Ikkinchi Abdulhamid siyosatiga qarshi chiqqan Jön turklar tashkil etgan. Parlamentar tizim, tenglik, erkinlik va ozodlikni talab qilgan bu harakat vakillari sultonga nisbatan keskin muxolif pozitsiyani egallab, yakunda parlament tizimining qayta tiklanishiga erishganlar. Mazkur maqolada Usmonli davlatining so’nggi davrida paydo bo’lgan Jön turklar harakatining kelib chiqishi va maqsadlari o’rganilgan, shuningdek, ushbu harakatning eng muhim siyosiy natijasi bo’lgan Ikkinchi Mashrutiya davrining e’lon qilinishi va bu qaror ortidan yuzaga kelgan siyosiy hamda ijtimoiy jarayonlar ham tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Jön turklar, Ikkinchi Mashrutiya, Turkchilik, Islomchilik, Usmonchilik.DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N17>

Kirish. XIX asrda yuz bergan siyosiy va ijtimoiy o’zgarishlar, paydo bo’lgan ideologiyalar va ularni ifodalagan shaxslar imperiyadan keyingi davrning muhim belgilovchilaridan biri bo’ldi. Fransuz inqilobining merosi sifatida shakllangan erkinlik, tenglik, konstitutsiyachilik kabi g’oyalar G’arbga tegishli bo’lmagan jamiyatlarga ham ta’sir ko’rsatdi va bu ta’sir imperiyalarning parchalanishi hamda millatchilik harakatlarining kuchayishiga olib keldi.

Dunyo siyosiy tarixida muhim o‘rin tutgan Usmonli imperiyasining parchalanish davri ham ushbu jarayonlardan mustasno bo‘lmagan. Millatchilik harakatlarining imperiya hududlarida ta’sir kuchayishi bilan Usmonlini saqlab qolish yo‘llari izlana boshlandi. “Bu davlat qanday qutqariladi?” degan savolga javob izlaganlarning muhim qismini II Abdulhamidga qarshi bo‘lgan Jön Türkler harakati tashkil etgan. Bu davrning eng muhim natijalaridan biri esa Ikkinchi Mashrutiyyatning e’lon qilinishi bo‘ldi. Jön Türkler harakati faqat Usmonli davlatining so‘nggi bosqichi uchun emas, balki Jön Türkler-Ittihad va Taraqqiy-Cumhuriyet Xalq Firqasi (CHP) o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatishi bilan ham muhim hisoblanadi. Zero, Usmonlidan Cumhuriyet Turkiyasiga o‘tishda asosiy burilishlardan biri bo‘lgan Ikkinchi Mashrutiyyat, turk milliy davlatining shakllanish yo‘lida muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu tadqiqotda Usmonli davlatining so‘nggi davrida imperiya taqdirini o‘zgartirgan, Cumhuriyet Turkiyasiga olib borgan yo‘lda asosiy o‘rin tutgan Jön Türkler harakatining kelib chiqishi, maqsadlari va ushbu harakatning eng muhim amaliy ishlaridan biri -Ikkinchi Mashrutiyyatning e’lon qilinishidan keyin yuzaga kelgan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur maqolada foydalanilgan adabiyotlar asosan Turkiya tarixshunosligida modernizatsiya va siyosiy o‘zgarishlar masalalarini yoritishga bag‘ishlangan ilmiy manbalardan iborat. N. Berkesning “Türkiye’de Çağdaşlaşma” asari mamlakatning modernlashuv jarayonini keng ijtimoiy-siyosiy kontekstda tahlil qiladi. T.Z. Tunaya hamda Ş. Mardinning tadqiqotlari esa XIX–XX asr boshlaridagi siyosiy partiyalar faoliyati va Jön Türklerin siyosiy g‘oyalari tarixini yoritishga qaratilgan. E. J. Zürcher, T. Timur va H. İnalcıkning asarlari milliy davlatchilik shakllanishi, ittihatçilik va II. Meşrutiyyet davridagi konstitutsiyaviy jarayonlarni chuqur tahlil etadi.

Shuningdek, M. Karakaş, C. Vatandaş va Y. D. Çetinkaya tomonidan tayyorlangan maqolalar II. Meşrutiyyet davri siyosiy va ijtimoiy harakatlarini, ularga asos bo‘lgan g‘oyaviy shart-sharoitlarni qamrab olgan. M. Baydur esa Kemalizm va uning o‘zgaruvchan paradigmalari haqida muhim nazariy yondashuvni taklif etadi. Ushbu adabiyotlarning umumiy tahlili Turk modernizatsiyasi va siyosiy jarayonlarining uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tarixiy tahlil, xronologik izchillik va manbalar tanqidi usullaridan foydalanildi. Adabiyotlar o‘rtasida muayyan tafovutlar solishtirilib, tarixiy davrlarning o‘zaro aloqasi aniqlashtirildi. Shu orqali o‘rganilayotgan masalaning nazariy hamda tarixiy asoslari dalillar bilan mustahkamlandi.

Muhokama va natijalar. “Jön” so‘zi aslida fransuz tilidagi “Jeune” so‘zidan olingan bo‘lib, u XIX asrning 1840-yillariga borib taqaladi. Niyazi Berkes bu atamani ikki xil guruhni ifodalashda ishlatgan: birinchisi, Usmonli tuzilmalarini avvalgi an’anaviy shakliga qaytarishni xohlagan islohotchilar; ikkinchisi esa shariat tizimi davrga moslasha olmagan deb hisoblab, din va davlat ishlarini ajratish hamda Yevropa uslubidagi boshqaruvni qo‘llab-quvvatlagan guruh edi. Ammo Turkiyada “Jeune” atamasi ko‘proq G‘arb uslubidagi konstitutsiyachilik, millatchilik, hatto respublika tarafdorlari sifatida tushunilgan. Shuning uchun Berkesning fikricha, Yevropaga borgan yoshlar o‘zlarini “Yangi Usmonlilar” deb ataganlar. Yangi Usmonlilar safida Ziya Pasha, Namik Kamol va Shinozilar bo‘lgan. Ular Tanzimat islohotlariga tanqidiy munosabat bildirgan va o‘z davrining eng muhim muxoliflaridan biri bo‘lishgan. Ularning fikrlari ba’zan bir butun sifatida baholanmagani uchun tanqid qilingan. 93 yili urushidan keyin esa II Abdulhamid tomonidan siyosiy beqarorlik bahonasi bilan surgun qilinganlar. Ularning ayrimlari keyinchalik Jön Türkler harakatiga qo‘shilganlar [1].

Parlament tizimi, tenglik va erkinlik talab qilgan Jön Türklar, shu talablar asosida Sultan II Abdulhamidga qarshi kuchli muxolifat shakllantirgan. Bu qarshilik uch asosiy doirada siyosiy yadrolanishga sabab bo'ldi: birinchisi, Harbiy va Tibbiyot maktablarining talabalari; ikkinchisi, ko'p qismi harbiylardan iborat, biroq armiya tashqarisidagilarni ham o'z ichiga olgan yashirin tashkilotlar (xususan cunta); uchinchisi esa Jeneva, Qohira va Parijdagi ziyolilar guruhlar edi. Ushbu guruhlarining barchasi "Jön Türk" deb atalgan.

II Abdulhamid Jön Türklarning ayrim a'zolarini surgun qilgan, ular esa G'arb g'oyalari bilan tanishgan. Shuning uchun ayrim tadqiqotchilar fikricha, Usmonli tarixidagi eng G'arbni tushungan avlod aynan Jön Türklar davrida yetishgan. Ahmet Riza, Abdullah Cevdet, Mizanci Murat bu harakatdagi muhim shaxslar edi. Ularning asosiy qarashi G'arblashtirish, ya'ni kuchli bo'lish degan tushuncha bilan teng bo'lgan. Bu davrda G'arb texnologiyasi va ilmini asos qilib, konstitutsiyaviy boshqaruvga o'tish orqali davlatni saqlab qolish mumkinligi ta'kidlangan. Bu qarashlar Yangi Usmonlilar davrida boshlangan, Jön Türklar va Ittihad va Taraqqiy bilan davom etgan va nihoyat Cumhuriyet Xalq Firqasi tomonidan davom ettirilgan [2,3,4].

Usmonli imperiyasining parchalanish davrida faol bo'lgan Jön Türklar harakatining asosiy maqsadi imperiyaning parchalanishining oldini olish edi. Ular bu maqsadga faqat erkinlik orqali erishish mumkinligiga ishonar va imperiyadan ajralib chiqmoqchi bo'lgan guruhlariga erkinlik va adolat berish orqali ajralishlarning oldini olishni ko'zlagan. Bu orqali, Abdulhamidning bosimi sababli mustaqillik istayotgan guruhlar soni kamayishi mumkin deb o'ylashgan. Shundan kelib chiqib, Jön Türklarning erkinlik talabini asosan vositali bir vosita sifatida talqin qilish mumkin [5].

Jön Türklar harakati, imperiyaga sodiq bo'lgan guruhlarini "Usmonli birligi" asosida birlashtirish tarafdori bo'lgani sababli, imperiya ichidan ma'lum bir etnik yoki dini guruhni (milletni) ustun qo'yish fikrini rad etgan. Harakat faqat "vatan" tushunchasini yagona birlashtiruvchi va qonuniy asos deb bilgan. Biroq, keyinchalik imperiyaning parchalanishini to'xtatib bo'lmashligi ayon bo'lganida bu yondashuv Ittihad va Taraqqiy partiyasi tomonidan o'zgartirilgan.

Jön Türk harakatining muhim shaxslaridan Ahmad Rizo, Mizanchi Murad, Bahauddin Shakir va Prens Sabahaddin kabi nomlar alohida ajralib turadi. Bu shaxslarning har biri harakatga turli sohalarda hissa qo'shgan. Ahmad Rizo ko'proq nazariyotchi bo'lib, siyosatchilikdan ko'ra g'oyaviy yetakchilik qilgan. Bahauddin Shakir esa, Dr. Nazim bilan birga, Jön Türklarning Ahmad Rizo qanotida bo'lib, Ittihad va Taraqqiy jamiyatiga kuchli tashkiliy asos yaratgan. Bu davrda jamiyat imperiyaning ko'plab hududlarida va chet davlatlarda bo'limlarga, kuchli kotibiyatga va aloqa vositalariga ega bo'lgan [6].

Harakat ichida muxolif fikrli shaxs sifatida tanilgan Prens Sabahaddin Ahmad Rizo uchun jiddiy raqobatchi bo'lgan. Uning fikricha, taraqqiyot faqat shaxsiy tashabbus orqali ro'y berishi mumkin va imperiyani tiklash uchun erkin tadbirkorlik zarur edi. Ahmad Rizo esa tobora Usmonli millatchisiga aylana boshlagan. Ikki shaxs tashqi aralashuv borasida ham bir-biridan farq qilgan: Ahmad Rizo markazlashuv tarafdori bo'lib, har qanday xorijiy aralashuvga qarshi chiqqan bo'lsa, Prens Sabahaddin esa cheklangan tashqi aralashuvni qabul qilib, mahalliy avtonomiya (adem-i markaziyat) va erkin iqtisodiy tashabbusni yoqlagan. Bu siyosiy qarashlar Prens Sabahaddinning tashabbusi bilan o'tkazilgan Birinchi Usmonli Liberal Kongressida muhokama qilingan [7].

1902-yil 4-fevralda o'tkazilgan Birinchi Jön Türkler Kongressiga turli mamlakatlardan kelgan va turli millatlarga mansub delegatlar Prens Sabahaddinining raisligida qatnashgan. Ammo bu kongressdan kutilgan natija chiqmagan. 1907-yilda yangi kongress o'tkazish qarori qabul qilingan va Parijda Ikkinchi Jön Türkler Kongressi bo'lib o'tgan. Prens Sabahaddin bu kongressning ochilish nutqida turli irq va din vakillarini Abdulhamidning zolimona boshqaruviga qarshi kurashga va mamlakat bo'ylab chuqur islohotlarga chaqirgan. Biroq boshlang'ich birlik kayfiyatiga qaramay, ikki tashkilotning birlashuvi bu safar ham amalga oshmagan.

Prens Sabahaddin Meşrutiyat e'lon qilingandan keyingi vaziyat bo'yicha harakatdagi boshqa shaxslardan farqlangan. Demolins va Le Play maktabidan ilhomlangan Prens Sabahaddinga ko'ra, Tanzimat va Konstitutsiyaviy islohotlarning muvaffaqiyatsiz bo'lishi sababini Mithat Posho yoki II. Abdulhamid kabi boshqaruvchilarda emas, balki Usmonli jamiyatining tuzilishida izlash kerak. Uning fikricha, muammo Abdulhamidning hokimiyatdan chetlatilishida emas, balki Sharq jamiyati turidan G'arb uslubidagi jamiyatga o'ta olmaslikdadir. Sharqona jamiyatlar taraqqiy eta olmaydi va doimo bosim ostida yashashga mahkum, deb hisoblagan. Prens, shuningdek, Tanzimatni tanqid qilgan va u o'ziga xos xususiy tashabbusga asoslangan iqtisod o'rniga, yana katta bir mansabdorlar armiyasini yaratganini ta'kidlagan.

Prens yangi hukumat bilan birga yangi ta'lim tizimini ham taklif qilgan. Unga ko'ra, Usmonli imperiyasida birinchi navbatda amalga oshirilishi kerak bo'lgan narsa markazlashmagan, ya'ni mahalliy hududlarga o'zini boshqarish huquqini beruvchi "adem-i markaziyat" tizimini yaratish bo'lgan. Imperiyaning barcha hududlari o'z faoliyatlarini mustaqil olib borishi lozim. Keyingi navbatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora esa ta'lim tizimini anglo-sakson modeliga asoslab, kishilarning ish va hayotga mustaqil kirishishiga imkon berish bo'lgan. Bu orqali Sharq jamiyatlarida mavjud bo'lmagan shaxsiy mulk tizimi shakllanib, ushbu mulk orqali mamlakat tabiiy resurslari ishga solinishi mumkin edi. Prens Sabahaddinining Usmonli jamiyat tuzilishini adem-i markaziyat shakliga o'zgartirish istagi amalga oshmagan bo'lsa-da, bu g'oyalar keyinchalik respublika davrida boshqa shaxslar tomonidan ilgari surilgan.

Jön Türk harakatining Abdulhamidga nisbatan kuchli muxolifligi va erkinlik talablari bilan bir qatorda, harakat ichidagi shaxsiy manfaatchilik kurashlari va mason tarzidagi tashkilotchiliklari ham eslatilishi lozim. Shaxsiy ambitsiyalarning harakatda ko'pligi, partiya dasturida nazariya bilan amaliyotning farqlanishiga sabab bo'lgan. Bu borada Şerif Mardin, partiya ichidagi guruhlarining bir-birini yo'ldan urishga qaratilgan strategiyasi ularning siyosiy fikrlarining asl mohiyatini tashkil etganini, nazariy dastur esa bu niyatni yashirish uchun niqob vazifasini bajarganini aytgan. Harakatdagi yashirinlikning asosiy sababi -Abdulhamidning Ittihad va Taraqqiy a'zolarini hibsga oldirib, surgunga yuborganidir. Bu esa harakatni yanada ehtiyotkor va maxfiy ishlashga majbur qilgan. Aynan shu yillarda mason tashkilotlari yashirin ishlash va uyushmalarda yetarlicha tajribaga ega bo'lgan. Shu sababli Ittihad va Taraqqiy a'zolarining mason lojalarga qo'shilgani va bu tashkilotlardan tashkilotchilik uslubini o'rganganliklari haqida turli manbalarda ma'lumotlar mavjud.

Harakatning ideologiyasi va siyosiy kurash usullaridagi farqliliklarga qaramasdan, Mardingacha Jön Türkler o'ziga xos, chuqur va ta'sirli siyosiy nazariya ishlab chiqa olmagan, shuningdek, o'z qarashlarini boshqalar izidan ergashadigan darajadagi ideologiyaga aylantira olmagan. Shuning uchun ular bu bo'shliqni ikki yo'l bilan to'ldirishga harakat qilganlar:

birinchisi -o'z davrida G'arbda muhokama qilinayotgan g'oyalarni ommaviylashgan shaklda o'zlashtirish, ikkinchisi esa -buyuk nazariyotchilar va xalq orasidagi vositachilikni amalga oshiruvchi ikkinchi darajali fikr egalarining qarashlarini o'zlariga singdirish orqali.

Jön Türklarning siyosiy nutqlarida Abdulhamidga qaratilgan tanqidlar asosiy o'rinni egallagan. Ular Abdulhamidni konstitutsion tuzumning rivojlanishiga to'sqinlik qilish, xalqni orqada qoldirish va savodsiz saqlashda ayblashgan va yechimni uni hokimiyatdan ag'darishda deb bilishgan. Ular parlamentli, qonuniy bir boshqaruv o'rnatish orqali mamlakatda zarur bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib, davlatni inqirozdan qutqarish va G'arb mamlakatlarining hurmatini qozonish mumkin deb hisoblashgan. Ularning siyosiy dasturlari ham aynan shu fikrlar asosida qurilgan. Jön Türklarning bu maqsadlariga erishishida eng muhim vosita -Meşrutiy boshqaruv tizimiga o'tish bo'lgan va bu 1908-yildagi harakat bilan amalga oshirilgan. Shu sababli, II. Meşrutiyat davrini Turkiya Respublikasi uchun ideologik asos bo'lgan muhim burilish sifatida baholash aslo noto'g'ri bo'lmaydi [8].

II. Mashrutiyatning e'lon qilinishi va g'oya harakatlari

Turkiya Respublikasi davriga oid tadqiqotlar, ko'pincha Usmonli imperiyasining so'nggi davridan, ayniqsa II. Mashrutiyat davridan boshlab o'rganiladi. Buning ikki muhim sababi bor. Birinchisi – II. Mashrutiyat bilan boshlangan konstitutsiyaviy jarayon harbiy harakat/zarba/inqilob bilan amalga oshirilganidir. Ikkinchisi esa – bu davrda keskin muhokama qilingan g'oyaviy oqimlar keyinchalik Respublika Turkiyasining mafkuraviy asoslariga aylanganidir. 1908-yil harakatini amalga oshirgan shaxslar, Usmonli imperiyasining so'nggi davrida imperiyani qanday qutqarish mumkinligini izlab, imperiyaning qulashiga guvoh bo'lgan va milliy davlatning tug'ilishi yo'lida yo'naltiruvchi rol o'ynaganlar.

Imperiyaning so'nggi bosqichlarida muhim burilish bo'lgan II. Mashrutiyatning e'lon qilinishi, harbiy harakat - 3 - Makedoniya va 2 - Trakiya armiyalariga mansub Ittihadchilar zobitlari harakatlari natijasida yuzaga kelgan. Makedoniya muammosi ortidan Ittihad va Taraqqiy jamiyati a'zosi bo'lgan zobitlar askarlari bilan birga tog'larga chiqib, 1876-yilgi Asosiy qonun (Kanun-u Esasi)ni qayta tiklashni talab qilgan. Bunga javoban, avval Anadoludan askarlar yuborilib, qo'zg'olon bostirilmqochi bo'lgan, biroq bu urinish muvaffaqiyatsiz tugagan. 1908-yil 23-iyulda esa, sulton II. Abdulhamid Asosiy qonunning to'liq qo'llanilishini va'da qilganidan so'ng, parlament 30 yildan keyin yana chaqirilgan.

II. Abdulhamidning Mashrutiyatni e'lon qilishga majbur bo'lishi va harakatning harbiy ildizlarga ega bo'lishi bu davrning xarakterini tushunishda muhim omildir. G'arbda siyosiy va ijtimoiy harakatlarga rahbarlik qilgan burjua sinfining Usmonli imperiyasida yo'qligi, bu harakatning harbiy xarakterda shakllanishiga sabab bo'lgan. Harbiy tibbiyot maktablarida (Askerî Tıbbiyye) tahsil olgan va harakatda ishtirok etgan harbiylar Yevropadagi zamonaviy g'oyalar bilan tanishib, vatanga qaytganlarida bu bo'shliqni qisman to'ldirishga uringanlar.

1908-yilgi siyosiy vaziyatni zarbaga aylantirgan real sharoit, II. Mashrutiyatni yarmigacha harbiy siyosiy tuzumga aylantirgan. I Mashrutiyat davridagi faollar asosan XVIII asr ma'rifatparvarlik falsafasidan ta'sirlangan bo'lsa, II Mashrutiyat uchun kurashganlar esa XIX asr fransuz ijtimoiy fan namoyandalaridan ilhom olib, ularning qarashlarini najot va mutlaq yechim sifatida qabul qilganlar. Bu davrning muhim partiyasi bo'lgan Ittihad va Taraqqiy jamiyati, shu sababli Respublikadagi "boshqaruv elitalari"ning boshlanishi sifatida talqin qilinadi. Feroz Ahmadga ko'ra, Ittihad va Taraqqiy jamiyatining burjua sinfini yaratishga bo'lgan harakatlari ajablanarli emas. Zero, davlat ilohiylashtirilgan tizimlarda jamiyatning barcha sohalariga

aralashadi. Shu sababli, Ahmad fikricha, bu partiya davlat va partiyaning o'zaro qo'shilib ketgan tuzilmasi bo'lib, "Turk burjuaziyasining ilg'or partiyasi" deb baholanadi. Ahmadning bu tahlili, Respublika davrining ilk bosqichlari uchun ham to'g'ri keladi – yangi milliy davlatda ham burjua sinfini shakllantirish davlat rahbarlari tomonidan amalga oshirilgan [9].

1908-yilgi harakat ijtimoiy harakatlarga ham ta'sir qilgan. II. Abdulhamid davrida sadoqat va itoat asosida pasiflashtirilgan omma, bu harakat bilan bevosita jamoat maydonlarida harakatga keltirildi. 1908-yildan so'ng ko'cha yurishlari, mitinglar, namoyishlar, siyosiy faoliyatning muhim vositasiga aylandi. Siyosiy suiqaatlardan so'ng o'tkazilgan dafn marosimlari, minglab kishilar ishtirok etgan jamoaviy norozilik aksiyalariga aylandi. Etnik va ijtimoiy guruhlarining o'z fikrini balandroq ayta boshlashi ham shu davrning mahsulidir. Ishchilar, talabalar, yo'lovchilar, mansabdorlar va dehqonlarning o'z-o'zidan boshlangan harakatlari hatto Jön Türkler safida bo'lgan elitalarni ham bezovta qilgan. Davr xotiralarida xalqning "erkinlik"ni noto'g'ri tushungani ta'kidlangan [10].

Bundan tashqari, II. Mashrutiyaatning e'lon qilinishi bilan matbuot sohasida ham katta jonlanish kuzatilgan. Ommaviy noroziliklar va harakatlar haqida ommani tinchlikka chaqiruvchi maqolalar chop etilgan, "Har kuni miting qilish" Mashrutiyaatning o'rnatilishiga to'sqinlik qilayotgani va hokimiyat egalari ishiga xalal berayotgani tanqid qilingan. Bu munozaralar ayniqsa 1908-yildan keyin soni 30 baravar ortgan jurnallar orqali olib borilgan. II. Mashrutiyaat yozuvchilarining asosiy e'tibori davlat va jamiyatga jon baxsh etish bo'lgan. Ko'plab Jön Türkler, amaldorlar va zobitlar bo'lishi tufayli, ularning fikricha o'zgarishlarni faqat davlat orqali amalga oshirish mumkin edi. Bu holat harbiy va boshqaruv elitasi o'zini islohotlarning bosh ijrochisi sifatida ko'rganining yana bir ko'rinishidir.

II. Mashrutiyaat bilan boshlangan davr -Respublika davriga o'tishning yo'l xaritasini belgilagan bahslarga sahna bo'lgan.

Bu davrda ziyolilar G'arbdan keng miqyosda tarjima ishlariga kirishgan, Mustafa Kemal kabi yosh harbiy zobitlar Hüseyin Cahit, Kılıçzade Hakkı va Celal Nuri kabi shaxslarning maqolalarini qiziqish bilan kuzatgan hamda davlat va jamiyat borasidagi izlanishlarini davom ettirganlar. Boshqa tomonda esa Islomda islohot bo'lishini xohlagan islomchilar bor edi. Bu davrda muammolarga yechim sifatida ilgari surilgan g'oyalar ichida eng ko'p muhokama qilingan va obro' qozongan oqimlar -islomchilik, turkchilik va usmonchilik bo'lgan. Siyosiy hayotning rang-barang tus olishi bilan birga, liberal nutq ifodasi sifatida Meslek-i İchtimaicilik va Sotsializm kabi g'oya oqimlari ham aynan shu davrda muhokama maydonida o'rin olgan oqimlar sirasiga kiradi [11].

Usmonchilik orqali imperiyaning uzoq yillar davomida ergashib kelgan "usmonli kimligi" qayta tiklanishga uringan, imperiyaning turli din, etnik kelib chiqish va tilga ega bo'lgan unsurlarini yagona "usmonli millati" atrofida birlashtirish maqsad qilingan. G'arb sivilizatsiyasi asosida ishlab chiqilgan siyosat sifatida Usmonchilik bilan, Usmonli hududida mavjud bo'lgan barcha din va mazhab farqlari yo'q qilinishi, musulmon va nasroniy xalqlarning siyosiy va huquqiy maqomini tenglashtirish nazarda tutilgan edi. Bu yo'l bilan ajralishni xohlovchi guruhlarining bu niyatlaridan voz kechishlari umid qilingan.

Islomchilik g'oyasi bilan esa xalifaning nufuzidan foydalanib, musulmon xalqlarni imperiyaga bog'lash maqsad qilingan. Turkchilik orqali esa, imperiyaga bog'liq bo'lgan boshqa dini guruhlarining mustaqillik talablariga javoban, Anadoluda birlashtirilgan turk millati va'da etilgan. Aksariyat milliy ozchiliklarning mustaqillik talablarini to'xtata olmaslik Usmonchilik

g'oyasining muvaffaqiyatsizligini ko'rsatgan va Ittihad va Taraqqiyi Turkchilik g'oyasini ilgari surishga majbur qilgan.

Usmonlichilik g'oyasining muvaffaqiyatsizligining ayrim sabablari mavjud. Mardinga ko'ra, bu sabablarning eng muhimlaridan biri til masalasidir. Chunki turli guruhlarini bitta "Usmonli" kimligi ostida birlashtirish uchun zarur bo'lgan eng katta umumiylik -umumiy til-Usmonlilar davlatida yo'q edi. Har kim tomonidan ishlatiladigan yagona "Usmonli" tili bo'lmagan va davlatda asosan turk tilining ishlatilganligi "usmonlichilik" o'rniga "turk millati" g'oyasining kuchayishiga olib kelgan. Biroq turk elementi asosida davlatchilikni davom ettirish harakati boshqa etnik guruhlarining chetga chiqarilib, faqat bitta etnik guruhning ustunligini anglatgan.

Shu sababli Ittihad va Taraqqiy 1909-yil iyun oyida chaqirilgan parlamentda ozchiliklarning madaniy va siyosiy faoliyatlarini cheklash, ularga tegishli maktablarni nazorat qilish imkonini beruvchi huquqiy tartibotlarni joriy qilib, umumiy "usmonli madaniyat"ini yaratishga urinadi. Feroz Ahmadning "umumiy usmonli madaniyati" g'oyasini Niyazi Berkes ham qo'llab-quvvatlaydi. Berkesga ko'ra, ozchilik guruhlar bilan birga yashashni davom ettirish endi ularning ayrim huquqlaridan, hattoki e'tiqodlaridan voz kechishlarini talab qilgan. Biroq bu holatda "millat"lar o'z siyosiy mavjudliklaridan voz kechib, faqat "madaniy mavjudlik" sifatida qolishlari zarur edi. Bu esa, bu guruhlarining diniy ta'sirdan chiqishlari va davlatning dindan ajratilishi bilan amalga oshishi mumkin.

Bu davrda turk tili umumiy til sifatida belgilanishi va xorijiy ozchiliklarning ta'lim muassasalarining nazorat ostiga olinishi -tilning ijtimoiy tuzilmadagi hal qiluvchi o'rni bilan bog'liq edi. Bu orqali tilning cheklovchi yoki ijtimoiy birlikni rag'batlantiruvchi xususiyatidan foydalanishga intilish kuzatilgan. Turkchilik g'oyasi -tipki Osmanlıcilık, islamcılık va g'arblashuv kabi -g'arbona siyosatning mahsuli sifatida shakllangan. Uning shakllanishida Germaniyaning ta'siri bilan birga, Bolqonlar va Arab dunyosida yuzaga kelgan milliy ozodlik harakatlari hamda Yevropaning turli markazlarida olib borilgan turkologiya tadqiqotlari muhim rol o'ynagan. II. Mashrutiyatdan so'ng Istanbulga joylashgan Markaziy Osiyodan kelgan turk ziyolilari, butun turk dunyosini qamrab oladigan tarzda tashkil etilib, Turkchilik g'oyasining rasmiylashuv jarayoniga muhim hissa qo'shgan.

Usmonli jamiyatida hukmron millat sifatida turklar mavjud bo'lganligi sababli, Turkchilik g'oyasining ilgari surilishi va variant sifatida tanlanishi ajablanarli emas. Bu davrning muhim shaxslaridan biri -Yusuf Akçura o'zining mashhur "Üç Tarz-ı Siyaset" nomli asarida Osmanlılık, İslamcılık va Türkçülük g'oyalarini alohida-alohida tahlil qilgan. Qozon turki sifatida dunyoga kelgan Akçura Fransiyada tahsil olgach, Rossiyaga qaytib ketgan. U yerda 1915-yilgi inqilobda qatnashganidan so'ng Rossiya imperiyasi tomonidan surgun qilinadi. 1918-yildagi Jön Türk harakatidan so'ng esa Turkiyada yashay boshlaydi. Bu davr mobaynida Akçura, Abdulhamid rejimidan qochib Rossiyaga borgan ayrim ziyolilar bilan ham aloqada bo'lgan.

Xulosa. Ba'zi tadqiqotchilarga ko'ra, Ikkinchi Mashrutiyat davri Turkiya Respublikasining siyosiy hayoti uchun bir prototip vazifasini bajargan. Bu davrning muhim siyosiy aktyorlari hisoblangan Jön Turklar va 1908-yil harakati atrofida shakllangan harbiy va fuqaroviy byurokratiya, keyingi respublika davrining asosi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan olib qaralganda, 1908-yildagi harbiy harakatlar (darbeler)ni Turkiya siyosiy tarixida Jön Turklarning siyosiy merosi sifatida baholash mumkin. Shuningdek, bu harakat ichidan chiqqan

yetakchi shaxslar tomonidan ilgari surilgan g'oyaviy oqimlar, xususan Turkchilik mafkurasi, yangi milliy davlatning asosiy ideologik negiziga aylangani ham ularning yangi davlat qurilishidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi.

Jön Turklar va Ikkinchi Mashrutiyyat davridan bugunga qadar yuz yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, tarixchilar, sotsiologlar va siyosatshunoslar tomonidan o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarga qaramay, ushbu davrda yuz bergan voqealar va sahnaga chiqqan shaxslar haqida hali ham to'liq o'rganilishi lozim bo'lgan jihatlar mavjud. 1908-yilda yuz bergan Mashrutiyyat harakatiga qarshi 1909-yilda sodir bo'lgan qarshi harbiy to'ntarish esa Turkiya siyosiy tarixidagi siyosiy qarama-qarshiliklar, asosiy aktyorlar va ularning g'oyalarining shakllanishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalaning kengroq tahlili esa alohida bir tadqiqot mavzusi bo'lishi lozim.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Berkes, N. (2005). *Türkiye'de Çağdaşlaşma* (A. Kuyaş, Tarjimasi). İstanbul: Yapı Kredi Yayınları.
2. Tunaya, T. Z. (1995). *Türkiye'de Siyasal Partiler 1859-1952*. İstanbul: Arba Yayınları.
3. Açıkgöz, Ö. (2013). *Osmanlı Modernleşmesi*. Ankara: Elips Kitap.
4. Baydur, M. (2004). *Kemalizm ve Değişen Paradigma*. İstanbul: İlk Yayınları.
5. Mardin, Ş. (1999). *Jön Türklerin Siyasal Fikirleri 1895-1908*. İstanbul: İletişim Yayınları.
6. Zürcher, E. J. (2010). *Modernleşen Türkiye'nin Tarihi* (Y. Saner, Tarjimasi). İstanbul: İletişim Yayınları.
7. Karakaş, M. (2008). II. Meşrutiyet Dönemi Fikir Hareketleri, H. Akkurt & A. Pamuk (Tahr.), *Yüzüncü Yılında II. Meşrutiyet* ichida (s. 65-102). İstanbul: Pınar Yayınları.
8. Vatandaş, C. (2008). Türkiye'nin Batılılaşma Süreci ve II. Meşrutiyet'i Hazırlayan Şartlar, H. Akkurt & A. Pamuk (Tahr.), *Yüzüncü Yılında II. Meşrutiyet* ichida (s. 11-65). İstanbul: Pınar Yayınları.
9. Timur, T. (2010). Uluslaşma Süreci, İttihatçılık ve Devrim, S. Akşin, S. Balcı & B. Ünlü (Tahr.), *100. Yılında Jön Türk Devrimi* ichida (s. 39-60). İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.
10. Çetinkaya, Y. D. (2009). 1908 Devrimi ve Toplumsal Seferberlik, *II. Meşrutiyeti Yeniden Düşünmek* ichida (s. 13-23). İstanbul: Tarih Vakfı Yurt Yayınları.
11. İnalçık, H. (2010). II. Meşrutiyet: Anayasa Rejimi Geliyor, Cumhuriyet Yolu Açılıyor, S. Akşin, S. Balcı & B. Ünlü (Tahr.), *100. Yılında Jön Türk Devrimi* ichida (s. 3-10). İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).